

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI SUG`ORILADIGAN  
YERLARNING MELIORATIV HOLATINI  
YAXSHILASH JAMG`ARMASI FAOLIYATINI  
TASHKIL ETISH TO`G`RISIDA**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING  
QARORI  
31.10.2007 y.  
N PQ-718**

Mazkur Qarorga quyidagilarga muvofiq o`zgartirishlar kiritilgan  
O`zR Prezidentining 12.12.2007 y. PQ-744-son Qarori,  
O`zR Prezidentining 02.02.2011 y. PF-4273-son Farmoni,  
O`zR Prezidentining 19.04.2013 y. PQ-1958-son Qarori

1-ilova. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish departamentining Tuzilmasi

2-ilova. Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi Kengashi Tarkibi 3-ilova. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi to`g`risida Nizom

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" 2007-yil 29-oktyabrdagi PF-3932-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda melioratsiya ishlarini moliyalashtirishning prinsipial yangi mexanizmini joriy etish maqsadida:

1. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish departamenti tashkil etilsin.

Quyidagilar:

O`zR Prezidentining 19.04.2013 y. PQ-1958-son Qaroriga muvofiq uchinchi xatboshi o`z kuchini yo`qotgan

boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 60 nafar bo`lgan O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish departamenti tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi Kengashining tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi to`g`risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O`zbekiston Respublikasi moliya vaziriga zarur hollarda xodimlarning tasdiqlangan umumiyligi soni doirasida Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish departamenti tuzilmasiga o`zgartirishlar kiritishga ruxsat etilsin.

2. Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish departamentiga:

Jamg`arma mablag`lari hisobiga moliyalashtirilayotgan, loyiha-qurilish hujjatlari tegishli ravishda ekspertizadan o`tkazilmasdan amalga oshirilayotgan yoki Jamg`arma mablag`laridan belgilanmagan maqsadda foydalanish hollari aniqlangan taqdirda har qanday ishlarni to`xtatib qo`yish;

magistral (viloyatlararo), tumanlararo va xo`jaliklararo meliorativ ob`yektlarda amalga oshirilayotgan rekonstruksiya qilish, qurish va ta'mirlash-tiklash ishlari ustidan texnik nazorat olib borish;

bajarilgan ishlar hajmini nazorat tartibida muntazam asosda o`lchash, shuningdek Jamg`armaning meliorativ ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag`laridan maqsadli foydalанишни hujjatlar asosida tekshirish va taftishlar o`tkazish huquqi berilsin.

3. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish

departamenti Toshkent shahar, Istiqlol ko`chasi, 29-uyga joylashtirilsin. (O`zR Prezidentining 19.04.2013 y. PQ-1958-son Qarori tahriridagi band)

4. O`zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yersharning meliorativ holatini yaxshilash jamg` armasini boshqarish departamentini hukumat aloqasi va shahar aloqasi vositalari bilan ta'minlasin.

5. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiquvchi o`zgartirish va qo`shimchalar to`g`risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari R.S. Azimov zimmasiga yuklansin.

**O`zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**I. Karimov**